

MAXSUS TA'LIM TIZIMI

Shokirova Surayyo Zokirxon qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Defektologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maxsus ta'lim tizimi haqida ma'lumot beriladi. Maxsus muassasalar, ta'lim va tarbiya berish, yaratilgan shart sharoitlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *maxsus muassasalar, maxsus ta'lim, jismoniy va ruhiy, korreksiya, rehabilitatsiya, kar-soqov, aqli zaif, yordamchi maktab, o'quv reja, dastur.*

Maxsus ta'lim tizimi deganda jismoniy va ruhiy kamciliklarga ega bo'lgan bolalarga (ko'zi ojiz, kar-soqov, aqli zaif, tayanch harakati apparatida nuqsoni bo'lgan, nutq nuqsoni bo'lgan bolalar) aniq maqsadni ko'zlab "korreksiya", "reabilitatsiya" ishlarni amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalar: ko'zi ojiz bolalar uchun ,eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun, aqli zaif bolalar uchun maktab -internatlar tushuniladi.

Maxsus maktablar -jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'smirlarning umumiy o'rta ta'lim muassalari .

Vazifasi-rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlardagi nuqsonlarni tuzatish, bartaraf etib ularning shaxsiyatini har jihatdan rivojlantirish va amaliy faoliyatiga tayyorlash.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga asoslangan holda fuqarolarning millatidan, dinidan, jinsidan , ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar ta'lim olishga huquqliligi tamoyili qaror topgan. Nogironlarni ijtimoiy huquqiy himoya qilishini davlat o'z burchi deb buladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab nogiron bolalarga maxsus ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirish yangi milliylik va o'z-o'zini anglash ruhida tarbiyalash o'qitish, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari tayyorlashga katta etibor berilmoqda.

1929-yilda O'zbekiston Respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev tashabusi bilan nuqsonli bolalar uchun Toshkentda alohida maktab ochildi.

Ko'r bolalar uchun mo'ljallangan binoda dastlab maktab yoshidan o'tgan 20bola ta'lim oldi. Undan so'ng maktabda maktabgacha yoshdagi bolalar qabul qilindi. 30-yillarning oxirlariga kelib Qo'qon va Buxoroda ham xuddi shunday maktablar ochildi. 1931-yilda nuqsonli bolalarni majburiy ta'limga jalb etish haqida qaror

qabul qilindi.1960-1961-o'quv yilida O'zbekistonda 20ta maxsus muassasalar bo'lgan bo'lsa ,1973-1974-o'quv yilida bunday muassasalar 43 taga yetib, tarbiyalanuvchilar soni 9000 mingdan ortib ketadi.1991-1992-o'quv yuliga kelib esa bunday maxsus muassasalar 77 tasi ish olib bordi.Ta'lim tarbiyaga jalb etilgan nuqsonlilar soni 20000ga yaqinlashib qoldi.

Maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli defektologlar tayyorlash ishi Markaziy Osiyoda 1-bo'lib 1967-yilda boshlangan edi.

O'zbekiston Respublikasida maxsus maktablar xalq talimi tizimida bo'lib,asosan xalq ta'limi vazirligini ixtiyorida.Ular maktablarning umumiy tamoyillari asosida tashkil qilinadi, lekin tuzilishi, ta'lim tarbiya metodlari jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega.Bunday maktablar maxsus o'quv reja va dasturlar asosida ishlaydi.Eshitish,ko'rish qobiliyati va aqli zaif bolalar uchun alohida darsliklar tuziladi.

Maxsus maktablarda ta'lim oliy ma'lumotli bakalavrdefektolog, defektologiya yo'nalishi bo'yicha magistr (surdopedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog, logoped) tomonidan amalga oshiriladi.Maxsus maktablar bolalar va o'smirlardagi nuqsonlarga qarab har hil turlarga bo'linadi va o'ziga xos ta'lim metodlardan foydalanadi.

Yordamchi maktab- aqli zaif bolalar o'qiydiga maxsus ta'lim tarbiya muassasasi O'zbekistonda dastlab 1935-yil Toshkent shahrida ochilgan.Asosan aqli zaiflar (oligofreniyanif dardebillikajadidagi)hamda keyinchalik turli kasalliklar tufayli aqli zaif bo'lib qolgan bolalar qabul qilinadi.Maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar tibbiy psixologikpedagogik komissiya tomonidan belgilanadi.Yordamchi maktabdagi aqli,zaif bolalar uchun maxsus ta'lim tarbiya O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi qonuni (1997) asosida amalga oshiriladi.Yordamchi maktablarda aqli zaif bolalarga maxsus ta'lim davlat standartlarga muvofiq maktablarning boshlang'ich sinfi hajmiga to'g'ri keladigan va qisman umumiy o'rta ta'limni amalga oshiruvchi maxsus ta'lim dasturi rejasi va darsliklar asosida olib boriladi.O'qish muddati 9 yil.Yordamchi maktabda har bir sinfga 10-12 o'quvchi qabul qilinadi.

Ko'rlar maktabi -ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar uchun internat maktab tipidagi maxsus ta'lim, tarbiya muassasasi.Ko'rlar maktabi ko'rlar va zaif ko'ruvchilar internat maktabiga bo'linadi.

Alohida moslashtirilgan internat maktabi 1935-yil ochilgan.Ko'rlar internati maktabiga mutlaqo ko'rmaydigan zaif ko'ruvchilar internat maktabiga 0,05% gacha qabul qilinadi.Ko'rlar maktabida 2 bo'lim mavjud bo'lib 1-bo'limda 10yillik ,2-bo'limda 11 yillik tayanch ta'lim beriladi.Ko'rlar maktabining boshlang'ich sinflarda o'qish maxsus reja dastur daryolik VA o'quv qo'llanmalari asosida

yuqori sinflarda normal maktablarning 5-9-sinflarda darslikdan foydalanib olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umumiy pedagogika R .A .Mavlonov ,N.H.Rahmonqulova .Toshket-2018
2. Maxsus pedagogika.R.M.Po'latova Toshkent -2005
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi .N.Rahmonqulov . Toshkent -2010.

INKLYUZIV TA'LIMNING SHAHAR VA QISHLOQLARDA IMKONYATI CHEKLANGAN BOLALAR VA ULARNING OTA- ONALARI UCHUN YARATILADIGAN QULAYLIKLARI

Norqulova Risolat Baxromovna

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti defektologiya yo'nalishi 2-
kurs talabasi*

Annotatsiya: *Inklyuziv talimning qulayliklari ,qishloq va shaharlarda inklyuziv ta'lim ishlari bo'yicha olib boriladigan pedagogik maxorat va inklyuziv talimda ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustaxkamlanishi va jamiyatda yanada tezroq va osonroq o'z o'rnini egallashlariga inklyuziv ta'limning imkoniyatlari haqida yanada kengroq tushunchaga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *Nogironligi bor bolalarning ota-onalari bag'rida va o'z tengdoshlari bilan birga ta'lim olishlari, aholi o'rtasida inklyuziv ta'limni joriy etish.*

Kirish

Hozirgi vaqtda hayotimiz yegillashtirish uchun talaygina imkoniyat eshiklari ochilga ajoyib bir davrda yashar ekanmiz. Bu albatta bizning yevropa davlatlariga mos va xos ta'lim tizimi hisoblangan inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilishi ham shular jumlasiga kiradi desak mubolag'a bo'lmaydi albatta.Bunday imkoniyatlar ayniqsa qishloq va shahar sharoitlarida istiqomat qiladigan aholiga juddayam mos keladi. Misol uchun: Qishloqdan shaharga maxsus maktabga farzandini olib boradigan ota-onalarga bir qancha yengillik yaratadi albatta.O'z hududlariga maxsus emas balki barcha bolalar qatori ta'lim oladigan umum ta'lim maktabda ta'lim olishlari ota-onalar uchun bu albatta juddayam katta